

O'ZBEK TILIDA KINOYA NUTQIY AKTINING EKSPRESSIV VA DISKURSIV
VAZIFASI

Ochilova Muxlisa Abduraxmon qizi

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universitet

Lingvistika yo'nalishi 1-kurs magistranti

muxlisaochilova2003@gmail.com

Annotatsiya: *Ushbu maqolada kinoya nutqiy akti va uning ekspressiv va diskursiv xususiyatlari, o'zbek tilida kinoyaning qo'llanilishi va uning turlari tahlil qilinadi.*

Kalit so'zlar: *kinoya, ironiya, tagma'no, situativ (vaziyatli) kinoya, assotsiativ (darajali) kinoya*

Аннотация: *В данной статье анализируются речевой акт иронии, её экспрессивные и дискурсивные особенности, а также использование и виды иронии в узбекском языке.*

Ключевые слова: *ирония, ироничность, подтекст, ситуативная ирония, ассоциативная (градуальная) ирония.*

Abstract: *This article analyzes irony as a speech act, its expressive and discursive features, as well as the use of irony in the Uzbek language and its types.*

Keywords: *irony, ironic expression, implied meaning, situational irony, associative (graded) irony.*

Nutqiy aktlar so'zlovchining kommunikativ maqsad yoki niyatini nutqda to'la aks ettiruvchi hodisadir. Shunday nutqiy aktlardan biri – kinoya. O'zbek tilida kinoya termini jahon va rus tilidagi ironiya terminiga sinonim tarzda qo'llaniladi. Avvalo, kinoyaga manbalarda berilgan ta'riflar bilan tanishib chiqamiz. To'xta Boboyev "Adabiyotshunoslik asoslari" darsligida kinoyaga shunday ta'rif beradi:

"Kinoya (yunon. eironeia – bilib bilmaslikka olish) – inkorning bir ko'rinishi bo'lib, tasvir obyekti ustidan kesatish, qochiriq yo'li bilan yashirin kulish, piching"¹⁰⁹.

Kinoyada, ko'pincha, salbiy munosabat ifodalanadi. Kinoyaviy munosabatni modallik kategoriyasi doirasida qarash lozim. Ironik mazmun kontekst bilan bog'liq. Kontekstni tushunish nafaqat kommunikatsiyaning amalga oshishi sharoitini anglashga, balki har bir birlikni butun matn yordamida tahlil qilishga imkon yaratadi. Buning natijasida kontekstual semantika tushunchasi kelib chiqadi va u ironik mazmunni to'liq va aniq tushunishga yordam beradi.¹¹⁰

O'zbek tilshunoslari turli darslik va tadqiqotlarda kinoya haqida ayrim mulohazalar aytib o'tadi. Jumladan, R.Qo'ng'urov, M.Mirtojiyev, E.Begmatov, A.Abdullayev, Y. Tojiyev, H.Homidiy, A.Hojiyev, Sh. Abduraxmonov kabilar.

¹⁰⁹ Boboyev T. Adabiyotshunoslik asoslari. T.: O'zbekiston, 2002. – B. 350.

¹¹⁰ Ibragimova E. O'zbek tilida ironiya va ironik mazmun ifodalanishining usul hamda vositalari(avtoreferat). – B. 4.

Kinoya, – deb yozadi Sh.Abduraxmonov, - bevosita maqsadli, tag ma'noli matnda hosil bo'ladi. Kinoya zaminida o'z navbatida, tanqidiy kulgi yotadi. Tadqiqotchining fikricha, matndagi til birliklarining kinoyaviy ekanligini anglashda, shuningdek, kulgi hosil bo'lishida presuppozitsiya ham muhim rol o'ynaydi. Qolaversa, paronamaziya hodisasi maxsus kinoyaviy kulgi hosil qilishda alohida ahamiyatga ega.¹¹¹

O'zbek tilshunosligida kinoyaning ilk bor o'rganilishi Ibragimova Ehtiyotxonning 2001-yilda himoya qilgan "O'zbek tilida ironiya va ironik mazmun ifodalanishining usul hamda vositalari" nomli nomzodlik dissertatsiyasi bilan bog'liq. Ushbu tadqiqotda badiiy tasvir vositalaridan biri – ironik ma'no ifodalash (kinoya, piching, kesatiq, qochiriq, uchuruq...) turlari va vositalari pragmatik tilshunoslik jihatidan tadqiq qilingan. O'zbek tilshunosligida mazkur mavzu borasida ayrim fikrlar aytilgan, lekin bu mavzu alohida tadqiqot sifatida o'rganilmagan edi. Tadqiqotchi dissertatsiyada badiiy tasvir vositalari tizimida ironiyaning tutgan o'rni, ironik mazmun ifodalovchi lisoniy vositalar, kinoyaning darajalanish xususiyatlari, ironik mazmun ifodalashda kontekstning o'rni, kinoyaning ifodalanish jarayoni va uning bosqichlari kabi muhim nuqtalarga e'tibor qaratadi¹¹¹.

Kinoya o'zbek tilida keng qo'llaniluvchi pragmatik vositalardan biri hisoblanadi. Uning zamirida so'zlovchining biror voqea-hodisaga, biror shaxsga, biror narsaga bo'lgan salbiy, tanqidiy munosabati yotadi. O'zbek tilidagi ba'zi manbalarda kinoya ironiya terminiga sinonim tarzda qo'llaniladi va ikkalasining ham ta'rifi deyarli bir xil keltiriladi. Lekin ironiya kinoyaga nisbatan ma'nosi kengroq tushuncha hiosblanadi. Kinoyaning asosiy xususiyatlaridan biri unda so'zlar, so'z birikmalari va hatto gap ham o'z ma'nosiga teskari ma'noda qo'llanadi. Nutqda kinoyaning o'ziga xos ohang bilan aytilishi esa uning ta'sir kuchini yanada oshiradi. Masalan:

Aybdorning o'ziga berilgan savollar va uning javoblari shunday zo'r protokolda hammadan oz joy oladi. Shu qadar ozki, mirzaning qalam uchini siyohga botirib o'tirishiga arzimaydi. Tergovchi bechora shunga ham umr sarf qilgan-da, sho'rlik!

Bor-yo'g'i ikkita savol, ikkita javob. Savollar kalta-kalta, javob undan ham kalta:

- Mingboshiga suvni kim berdi?
- Men berdim.
- Demak, mingboshini o'ldirgan – siz?
- Yo'q...(Kecha va Kunduz)

Ushbu parchada tergovchiga nisbatan qo'llanilgan sifatlarga e'tibor qiladigan bo'lsak, "bechora", "sho'rlik" sifatlari ishlatilmoqda. Bechora, sho'rlik sifatlari odatda qiynalgan, ko'p azob chekkan insonlarga nisbatan qo'llaniladi. Lekin jumlaning davomida tergovchi aybdordan bor-yo'g'i ikkita qisqa savol so'ragani, javobi esa undan ham qisqa bo'lgani ko'rinib turibdi. Tergovchi so'roq davomida qiynalish uyoqda tursin, deyarli hafsala ham qilmagani uchun ham unga nisbatan bechora, sho'rlik sifatlari orqali piching qilinmoqda.

¹¹¹ Ibragimova E. O'zbek tilida ironiya va ironik mazmun ifodalanishining usul hamda vositalari(avtoreferat). – B. 6.

Nutqiy aktda “shoʻrlik”, “bechora” sifatlarini oʻz maʼnosiga teskari maʼnoda qoʻllash orqali kinoya hosil qilinmoqda.

Tilshunoslikda kinoyani hosil qilishning quyidagi ikki asosiy turi qayd etiladi:

1. Situativ (vaziyatli) kinoya
2. Assotsiativ (darajali) kinoya

Har bir tur yoki tip alohida maqsad asosida rejalashtirilgan kontekstlarda amalga oshiriladi, shu orqali ularning parametrlarini aniqlash imkoniyati tugʻiladi. Kinoyaning bu tiplari maʼlum xususiyatlariga koʻra farq qiladi.

Situativ ironiya – emotsional jihatdan aniq, ravshan ironiya hisoblanadi.

Uning bu turini tez anglash mumkin. Soʻz, gap yoki soʻz birikmasining toʻgʻri maʼnosi bilan kontekstdagi maʼno orasidagi farq-ziddiyat darhol seziladi. Ironiyaning bu tipi mikro va makrokontekstlarda hosil boʻladi. Uni yuzaga chiqarish uchun fonetik-intonatsion, leksik-frazeologik, shuningdek, sintaktik vositalardan keng foydalaniladi. Bunday vositalar yordamida ikki xil strukturaga ega boʻlgan oddiy kontekst shakllantiriladi. Uning yordamida situatsiya bayoni va muallif yoki qahramon tomonidan beriladigan baho, izoh oʻz ifodasini topadi.

Situativ kinoya voqelikdagi kutilmagan, tasodifiy subyektiv munosabatlarni yorqin detallar bilan ifoda etishda muhim ahamiyatga ega. Kinoyaning bu turi koʻproq dialogik nutq koʻrinishida namoyon boʻladi.¹¹² Masalan:

Devor ustida turgan oʻn ikki yoshlardagi bir qiz devordan kesak koʻchirib olib mulla Norqoʻziga oʻqtaldi.

— Hu oʻl, turqing qursin! Boshingga solaymi shu bilan!

Mahallada sasib, oʻquvchi qizlarga kun bermaysanu, oʻzing notoʻgʻri ish qilasan... Hammaning diqqati xotinchakiyangan va eshik yonida yerga qarab turgan yigitga jalb boʻldi. Yana jimlik hukm surdi. Bu sukunat ogʻir tegirmon toshi boʻlib mulla Norqoʻzini yanchib yubordi. U devor ustidagi qizga qarab, boʻgʻiq tovush bilan oʻshqirdi: — Sen gapirma! Senga kim qoʻyibdi gapirishni! Usta Mavlonning oʻgʻlidan bir hovuch mayiz olganingni oʻz koʻzim bilan koʻrganman!..

Hamma kulib yubordi. Tomdan kimdir qichqirdi:

— Ha, bu kishining xotini mayiz yemagan! (“Mayiz yemagan xotin”)

Ushbu kommunikativ vaziyatda kinoya nutq ishtirokchilari oʻrtasida kutilmagan bir holatda yuz bergan. Yaʼni tomdagi odamlardan mulla Norqoʻziga “Ha, bu kishining xotini mayiz yemagan!” deb kinoya qiladi, aslida esa xotini eng yomon ishlarni ham qilganini piching qiladi.

Assotsiativ kinoya – bu badiiy asardagi tizimida oʻzining ifodalanish usuli, vositasi jihatidan murakkab xususiyatga ega boʻlgan ironik koʻrinish sanaladi. Assotsiativ ironiya ifodalashning shunday bir koʻrinishiki, unda shaxsiy munosabat anchagacha yashirin holda

¹¹² Parmonov A. Badiiy diskursda kinoya va uning lingvomadaniy tadqiqi. – Qoʻqon, 2023. – 116 b.

ifodalanib, kommunikantlar o'rtasidagi munosabat asta-sekinlik bilan yuzaga chiqadi. Bunda til yoki nutq birliklari ko'chma ma'noda qo'llanib, so'zlovchining asosiy maqsadi, sekin-asta, darajalangan holda oshkor etiladi. Ironik mazmun ifodalashning bu turini darajali(gradual) ironiya deb ham atash mumkin. Gradual kinoya ko'pincha megakontekst(makromatn)larda kuzatiladi. Bunday hollarda megakontekst vazifasini bir necha supersintaktik butunliklar – SSBlar birikmasi, bir butun asar yoki uning biror tarkibiy qismidan iborat bo'lgan yozma nutq ko'rinishlari bajarishi mumkin.

Assotsiativ kinoyani yuzaga keltirish uchun o'xshash yoki assotsiativ aloqalar mavjud bo'lishi zarur. Darajali ironiya kinoyali mazmun ifodalashning eng nozik, yashirin turi bo'lib, uning yordamida badiiy asar qahramonlari timsolining tabiiy xarakterini yaratish, asar personajlari haqida muallifning o'z dunyoqarashi asosida shakllangan shaxsiy tavsifi ochiq-oydin ifoda etiladi. Ironiyaning bu turi badiiy diskursning bir butun tizimini yaratishga yordam beradi.¹¹³ Masalan, Javlon Jovliyevning “Qo'rqma” romanidan olingan quyidagi diskursda berilgan assotsiativ kinoyaga e'tibor qaratamiz:

- Sen nima uchun o'qiyapsan?
- Sening nima ishing bor. Kimdir aytib qo'ydimi ho'kiz sotib kirganimni? –u gaplarimga ishonmay birdan yoqamdan oladi.
- Yo'q! Qo'rqma, jo'ra, -qo'lini biroz qisib, tortqilab bo'shatarkanman, tinchlantiraman.
- Men aybingni ochmoqchimasman. O'zim ham o'nta qo'yning boshini yeb talaba bo'lganman. Shunchaki nima uchun kirding institutga? Buqaning puliga mashina olsang bo'lardi-ku!
- Hech o'ylab ko'rmagan ekanman, bo'la! Kursdoshimdan telefon qilib so'rasam bo'ladimi? Balki yaxshiroq javob bersa ko'chirarman.
- Yo'q, u qayerdan bilsinsening nima maqsadda o'qiyotganingni. Buqa bilan bilan gaplashib ko'r-chi, u o'zining nimaga qurbon bo'lganini sendan yaxshi anglasa kerak.

Mazkur dialogik diskursda kinoya kommunikativ strategiya sifatida qo'llanib, muallifning ta'lim tizimidagi ayrim salbiy holatlarga, xususan, maqsadsiz ta'lim olish, moddiy manfaat evaziga talaba bo'lish va talabaning o'z hayotiy pozitsiyasini anglamasligi kabi muammolarga nisbatan tanqidiy munosabatini ifodalashga xizmat qilgan. Diskursning pragmatik mohiyati shundan iboratki, unda ifodalangan mazmun bilan nazarda tutilgan ma'no o'rtasida tafovut mavjud bo'lib, aynan shu tafovut kinoyaning yuzaga kelishiga sabab bo'ladi.

Dialogning boshlanishida “Sen nima uchun o'qiyapsan?” degan savol qo'llaniladi. Ushbu savol oddiy informatsion xarakterga ega bo'lib ko'rinsa-da, keyingi gaplar uning asl pragmatik vazifasi talabaning maqsadi va motivatsiyasini aniqlashdan iborat ekanligini ko'rsatadi. Suhbatdoshning “Kimdir aytib qo'ydimi ho'kiz sotib kirganimni?” degan javobi esa presuppozitsiyaga asoslangan bo'lib, bunda o'quvchi yoki tinglovchi talabaning oliy ta'lim muassasasiga kirishida moddiy vositalar muhim rol o'ynaganini anglaydi. Shu tariqa

¹¹³ Parmonov A. Badiiy diskursda kinoya va uning lingvomadaniy tadqiqi. – Qo'qon, 2023. – 117 b.

dialogning keyingi qismida yuzaga chiqadigan kinoyaviy mazmun uchun pragmatik fon yaratiladi.

Diskursdagi birinchi muhim kinoyaviy birlik “Buqaning puliga mashina olsang bo‘lardi-ku!” jumlasida namoyon bo‘ladi. Mazkur gapning lokutiv mazmuni talabaning o‘qishga sarflangan mablag‘ evaziga mashina sotib olishi mumkinligi haqidagi tavsiyadan iborat. Biroq illokutiv maqsad mutlaqo boshqacha. Nutq egasi aslida mashina sotib olishni tavsiya qilmayapti, balki talabaning o‘qishga kirishidan ko‘zlagan maqsadi noaniq va samarasiz ekanligini tanqid qilmoqda. Gapning yuzaki ma’nosi va kommunikativ maqsadi bir-biriga mos kelmaydi. Tinglovchi mazkur nomuvofiqlikni anglash orqali yashirin ma’noni dekodlaydi. Natijada “agar ta’limning mohiyatini anglamagan bo‘lsang, unga sarflangan mablag‘ning amaliy qiymati undan yuqori bo‘lgan boshqa narsaga sarflanishi mumkin edi” degan implikatura hosil bo‘ladi.

Dialogdagi ikkinchi va eng kuchli kinoya talabaning “Kursdoshimdan telefon qilib so‘rasam bo‘ladimi? Balki yaxshiroq javob bersa ko‘chirarman” degan javobida kuzatiladi. Ushbu replikada talaba o‘zining institutga nima sababdan kirganini bilmasligini ochiq tan olmaydi, balki buni istehzoli tarzda ifodalaydi. Pragmatik jihatdan bu o‘z-o‘ziga qaratilgan kinoya hisoblanadi. Nutq subyekti savolga mustaqil javob bera olmasligini tanqidiy kulgi vositasida namoyon etadi. Bu yerda “ko‘chirish” fe‘lining qo‘llanishi ham muhim pragmatik signal vazifasini bajaradi. Chunki ko‘chirish odatda tayyor bilimni o‘zlashtirmasdan nusxalash jarayonini anglatadi. Talaba o‘zining maqsadini ham boshqa birovdan “ko‘chirib olish” mumkinligini aytish orqali mustaqil tafakkur yetishmasligini kinoyaviy shaklda ifodalaydi. Ushbu kinoya orqali muallif zamonaviy ta’lim muhitida uchraydigan formalizm va fikriy passivlikni tanqid qiladi.

Diskursning kulminatsion nuqtasi “Buqa bilan gaplashib ko‘r-chi, u o‘zining nimaga qurbon bo‘lganini sendan yaxshi anglasa kerak” jumlasida mujassamlashgan. Pragmatik tahlil nuqtayi nazaridan mazkur gapda kuchli verbal kinoya va sarkazm unsurlari mavjud. Bu yerda buqaga xuddi ongli mavjudoddek tasavvur qilinib, unga anglash, tushunish va maqsadni idrok etish qobiliyati nisbat beriladi. Albatta, real kommunikativ vaziyatda hayvonning bunday imkoniyatga ega emasligi ma’lum. Shu sababli gapning ma’nosi kommunikativ jihatdan mantiqsiz ko‘rinadi. Aynan mana shu mantiqiy nomuvofiqlik tinglovchini yashirin ma’noni qidirishga undaydi.

Mazkur jumlaning implikaturasi shundan iboratki, talaba o‘zining ta’lim olish sababini tushunmaydi, holbuki uning ta’limi uchun qurbon qilingan moddiy boylik ramzi bo‘lgan buqa go‘yoki undan ko‘ra ongliroq va vaziyatni yaxshiroq anglaydi. Muallif shu yo‘l bilan talabaning ma’naviy va intellektual passivligini keskin tanqid qiladi. Bu yerda kinoya faqat kulgi uyg‘otish uchun emas, balki ijtimoiy tanqid vositasi sifatida xizmat qilmoqda. Pragmatik jihatdan bunday kinoya adresatning yuziga tahdid soluvchi nutq harakati hisoblanadi, chunki u talabaning aqliy va ijtimoiy kompetensiyasini shubha ostiga qo‘yadi.

Mazkur diskursda kinoya kommunikativ strategiya sifatida qo‘llanib, muallifning ta’lim tizimiga, maqsadsiz talabalikka va moddiy manfaat asosida shakllangan ta’lim

munosabatlariga nisbatan tanqidiy pozitsiyasini ifodalaydi. Kinoyaning pragmatik samaradorligi shundaki, muallif o'z bahosini bevosita bayon qilmaydi, balki implikaturalar, presuppozitsiyalar, ritorik ifodalar va semantik nomuvofiqliklar orqali o'quvchini mustaqil xulosa chiqarishga undaydi. Natijada kinoya nafaqat estetik-ekspressiv vosita, balki ijtimoiy voqelikni baholash va tanqid qilishning ta'sirchan pragmatik mexanizmi sifatida namoyon bo'ladi. Bu esa kinoyaning assotsiativ turiga yorqin misol bo'la oladi.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, kinoya nutqiy aktining asosiy xususiyati ifodalanayotgan mazmun bilan nazarda tutilayotgan pragmatik ma'no o'rtasidagi ziddiyatda namoyon bo'ladi. Bunda so'z yoki gap ko'pincha o'zining lug'aviy ma'nosiga qarama-qarshi ma'noda qo'llanib, adresat tomonidan yashirin mazmun sifatida qabul qilinadi. Shu sababli kinoyani anglashda kommunikativ vaziyat, nutq ishtirokchilarining umumiy bilimlari va presuppozitsion fond muhim ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Boboyev T. Adabiyotshunoslik asoslari. – Toshkent: O'zbekiston, 2002. – 350 b.
2. Hotamov N., Sarimsoqov B. Adabiyotshunoslik terminlarining ruscha-o'zbekcha izohli lug'ati. – Toshkent: O'qituvchi, 1979. – 278 b.
3. Ibragimova E. O'zbek tilida ironiya va ironik mazmun ifodalanishining usul hamda vositalari (fil.f. nomzodlik diss. avtoreferat). – Farg'ona, 2001. – 22 b.
4. Jovliyev J. Qo'rqma. T.: "Nihol" nashriyoti, 2022. 366 b.
5. Parmonov A. Badiiy diskursda kinoya va uning lingvomadaniy tadqiqi. (fil.f. falsafa doktori diss.) – Qo'qon, 2023. – 149 b.